uning mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash hamda monitoring tizimini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Dual ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining ikki muhitda - oliy ta'lim muassasasi va umumta'lim maktabi hamkorligida tashkil etilishi baholash jarayonini ham integratsiyalashgan holda olib borishni talab qiladi. Shu bois kasbiy kompetentlikni baholashning mezonli va indikatorli tizimini ishlab chiqish pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti - dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti - dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.

Tadqiqotning maqsadi - dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari, indikatorlari hamda monitoring tizimini ilmiy asoslash va takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- dual ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari va indikatorlarini aniqlash;
- dual ta'lim sharoitida kompetentlikni baholashning monitoring tizimini ishlab chiqish;
- taklif etilgan mezon va indikatorlar asosida kasbiy kompetentlikni baholash mexanizmini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik tadqiqotlarda "mezon" (kriteriy) tushunchasi muayyan pedagogik hodisa yoki jarayonning holati, rivojlanish darajasi va natijaviyligini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy o'lchov birligi sifatida talqin etiladi [8]. Mezon orqali o'rganilayotgan jarayonning qanday darajada shakllangani, qaysi yo'nalishda o'zgarayotgani, rivojlanish dinamikasi va sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bunda mezonning ilmiy qiymati shundan iboratki, u baholashni tasodifiy (subyektiv) fikrlardan chiqarib, diagnostik aniqlik va natijaviy xulosalarga olib keladi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi murakkab pedagogik jarayonlarda mezonlar tizimi nafaqat natijani "o'lchash" uchun, balki ta'lim jarayonini takomillashtirish va boshqarishning didaktik mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Mezon tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yana bir ilmiy tushuncha - "ko'rsatkich" (indikator) tushunchasidir. Ko'rsatkich mezonning amaliy ifodasi bo'lib, u pedagogik jarayonda bevosita kuzatiladigan, aniqlanadigan va qayd etiladigan belgilar tizimini anglatadi. Ya'ni mezon "nimani baholaymiz?" degan savolga javob bersa, ko'rsatkich "qanday belgilari orqali baholaymiz?" degan savolga javob beradi. Masalan, motivatsion-qadriyatli mezon bo'yicha kasbiy qiziqish, pedagogik mas'uliyat, amaliyotga faol jalb bo'lish kabi ko'rsatkichlar aniqlanishi mumkin. Kognitiv mezon bo'yicha esa pedagogika va didaktika asoslarini bilish, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha nazariy tayyorgarlik, darsni loyihalash ko'nikmasi kabi indikatorlar orqali kompetentlik darajasi aniqlanadi. Shu tariqa, mezonlar tizimi indikatorlar orqali konkretlashtirilib, tadqiqot natijalarini ishonchli baholash imkonini beradi.

Mezon va ko'rsatkichlar tizimi bilan bir qatorda "daraja" tushunchasi ham pedagogik diagnostikaning muhim kategoriyasi hisoblanadi. Daraja - mezonlar asosida shakllangan kompetentlik holatining bosqichli tavsifidir. Pedagogik tadqiqot amaliyotida kompetentlikni odatda "past-o'rta-yuqori" kabi darajalar asosida tasniflash orqali baholash keng qo'llaniladi. Bunday yondashuv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini statik holatda emas, balki dinamik rivojlanish jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, darajalar mezonlar bo'yicha kuzatilgan ko'rsatkichlar asosida aniqlangani sababli, baholash natijalari ilmiy asoslangan va izchil bo'ladi.

Dual ta'lim sharoitida kompetensiyaviy baholashning zarurati esa mazkur ta'lim shaklining o'ziga xos didaktik tabiatidan kelib chiqadi. Dual ta'limning asosiy mohiyati - bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini nazariy o'qitish bilan amaliy faoliyatni integratsiyalashgan holda tashkil etish, ya'ni "ta'lim muassasasi-amaliyot bazasi" uyg'unligini ta'minlashga asoslanadi. Bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompetentlikni faqat auditoriyada egallamaydi, balki maktabdagi real sinf muhiti, pedagogik vaziyatlar, dars o'tish tajribasi va amaliyotga rahbarlik asosidagi amaliy faoliyat orqali shakllantiradi. Ayniqsa, "4+2" mexanizmi asosida o'quv jarayonining ikki muhitda parallel olib borilishi baholash jarayonini ham ikki yo'nalishda - nazariy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalar natijadorligini kompleks tahlil qilishni taqozo etadi. Demak, dual ta'lim sharoitida baholashning klassik (faqat nazariy bilimga yo'naltirilgan) shakllari yetarli bo'lmay, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, mezonli baholash tizimi zarur bo'ladi.



Shu nuqtai nazardan, dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini baholashda quyidagi ilmiy-didaktik talablar ustuvor hisoblanadi: birinchidan, baholash tizimi kompetentlikning tarkibiy komponentlarini qamrab olishi; ikkinchidan, mezonlar va ko'rsatkichlar real pedagogik faoliyatda kuzatiladigan holatlar asosida tanlanishi; uchinchidan, darajali tasnif kompetentlik rivojlanish dinamikasini ko'rsatishi; to'rtinchidan, baholash jarayoni "OTM—maktab—amaliyot rahbari" hamkorligi asosida simmetrik tashkil etilib, subyektivlikni kamaytirishi lozim. Bunday yondashuv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda boshqarish, didaktik model samaradorligini aniqlash hamda tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik ishlov berish imkonini yaratadi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlarini aniqlash va baholashning kompetensiyaviy tizimini ishlab chiqish ilmiy jihatdan zarur bo'lib, u tadqiqotning metodologik asosini mustahkamlaydi, tajriba-sinov ishlarining ishonchliligini ta'minlaydi hamda o'quv jarayonini natijaga yo'naltirilgan holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini baholash va monitoring qilish masalasi zamonaviy ta'lim nazariyasi hamda amaliyotida dolzarb metodologik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bu, avvalo, ta'lim tizimining kompetensiyaviy paradigmasiga o'tishi, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida natijaga yo'naltirilgan yondashuvning kuchayishi, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarda oshkorlik, hisobdorlik va ishonchlilik mezonlarining ustuvor bo'lib borayotgani bilan izohlanadi. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari, ta'lim jarayonini boshqarishning monitoring tizimlari, refleksiv tahlil va pedagogik diagnostika imkoniyatlarining kengayishi ham baholashni an'anaviy nazorat shakllaridan kompetensiyaviy, mezonli va tizimli yondashuvga o'tkazishni taqozo etmoqda. Shu bois dual ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlikni baholashning metodologik asoslarini ilmiy asoslash tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [2: 6].

Dual ta'limning didaktik tabiatiga ko'ra, baholash jarayoni faqat talabaning nazariy tayyorgarligini aniqlash bilan cheklanmaydi. Aksincha, dual ta'limning mohiyati - nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda tashkil etish bo'lganligi sababli, baholash ham integratsiyalashgan bo'lishi zarur. Ya'ni baholash obyektiga bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorligi, metodik qaror qabul qilish kompetensiyasi, real sinf muhitida darsni tashkil eta olish malakasi, kommunikativ muomala madaniyati hamda refleksiv o'sish qobiliyati ham kiradi. Ayniqsa, "4+2" mexanizmi asosida o'quv jarayonining ikki muhitda (OTM + maktab) parallel tashkil etilishi baholash tizimini ham ikki yo'nalishda uyg'unlashtirishni talab qiladi [1]. Demak, dual ta'lim sharoitida baholashning metodologik asoslari kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda tizimli yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim.

Zamonaviy pedagogik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv kasbiy tayyorgarlik natijalarini belgilovchi asosiy metodologik yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvda ta'lim jarayonining natijasi o'zlashtirilgan ma'lumot hajmi bilan emas, balki kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatning uyg'unlashgan tizimi bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholashda kompetensiyaviy yondashuv metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Kompetensiyaviy baholash quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- baholash mezonlari kasbiy faoliyat natijalariga yo'naltiriladi;
- baholash amaliy faoliyat orqali namoyon bo'ladigan kompetensiyalarni qamrab oladi;
- nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalar bilan uyg'un holda tahlil qilinadi;
- baholash jarayoni refleksiya va o'z-o'zini baholash komponentlari bilan boyitiladi.

Demak, kompetensiyaviy yondashuv dual ta'lim sharoitida baholash jarayoniga "natijaviylik" tamoyilini olib kiradi va kasbiy kompetentlikning real holatini aniqlashga xizmat qiladi.

Dual ta'lim sharoitida baholashning metodologik asoslaridan yana biri - faoliyat yondashuvi hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kompetensiya bo'lajak o'qituvchining faoliyat jarayonida shakllanadi va aynan faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababli kasbiy kompetentlikni baholash ham "faoliyat natijalarini kuzatish va tahlil qilish" orqali amalga oshirilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi: u darsni rejalashtirish, o'qitish metodlarini tanlash, sinf jamoasini boshqarish, o'quvchilar bilan muloqot qilish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bilimni tashxislash kabi ko'p qirrali vazifalarni qamrab oladi. Dual ta'lim sharoitida talabaning ushbu faoliyat turlarini amaliyot jarayonida bajara olishi uning kasbiy kompetentligi darajasini belgilaydi. Shuning uchun baholash jarayonida: dars o'tish jarayoni, metodik yechimlar, pedagogik vaziyatni tahlil

qilish, ta'limiy va tarbiyaviy qarorlar qabul qilish kabi faoliyat mahsullari mezonli asosda tahlil etilishi zarur. Bu esa dual ta'limning baholash tizimini "amaliy natija"ga yo'naltiradi va kompetentlikni real sharoitda aniqlash imkonini yaratadi.

Dual ta'lim sharoitida baholash jarayonini metodologik jihatdan asoslashda tizimli yondashuv ham muhim o'rin egallaydi. Tizimli yondashuv baholashni alohida element sifatida emas, balki dual ta'limning umumiy didaktik tizimi tarkibida tashkil etishni nazarda tutadi. Ya'ni baholash mezonlari ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl-metodlari va vositalari bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Tizimli yondashuv doirasida dual ta'limda baholash quyidagi uchta integratsion yo'nalishda amalga oshiriladi:

OTMdagi nazariy-metodik baholash (test, yozma ish, loyiha);

- maktab amaliyotidagi kasbiy faoliyat bahosi (kuzatuv, dars tahlili, amaliyot rahbari xulosasi);
- refleksiv monitoring va o'z-o'zini baholash (kundalik, portfel, self-assessment).

Mazkur integratsiyalashgan model dual ta'limning "nazariya–amaliyot–refleksiya" uchligini yagona baholash tizimida uyg'unlashtiradi.

Bugungi ta'lim tizimi individual ta'lim trayektoriyasi va shaxsga yo'naltirilgan didaktik yondashuvni talab etmoqda. Dual ta'lim sharoitida ham bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni turlicha start darajaga ega bo'lgan talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, baholashda ham individual yondashuv zarur [5].

Shaxsga yo'naltirilgan baholash quyidagilar orqali ta'minlanadi: kompetensiya darajalarini individual dinamikada tahlil qilish; talabani "progress" asosida baholash; motivatsion omillarni hisobga olish; refleksiv o'sish indikatorlarini kuzatish. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonini faqat natija bilan emas, balki rivojlanish tendensiyasi bilan baholashga imkon beradi.

Zamon talabi sifatida baholash jarayonida formativ baholashning roli oshib bormoqda. Formativ baholash talabning faoliyatiga doimiy teskari aloqa berish, rivojlanish nuqtalarini aniqlash va o'qitish jarayonini shunga mos tuzatish mexanizmi sifatida qaraladi. Dual ta'lim sharoitida formativ baholash ayniqsa muhim, chunki talaba maktab amaliyotida xatolar qiladi, tajriba orttiradi, amaliyot rahbari yordamida o'sadi va refleksiya orqali kompetentlikni mustahkamlaydi.

Refleksiv monitoring esa: darsdan keyingi tahlil, o'z-o'zini baholash, refleksiv kundalik yuritish, portfel asosida rivojlanish tahlili orqali kompetentlikni ichki mexanizmlar asosida kuzatib borishga xizmat qiladi.

Demak, dual ta'lim sharoitida baholash "yakuniy nazorat" emas, balki "rivojlantiruvchi baholash" sifatida tashkil etilishi zamonaviy didaktik talabdir.

Hozirgi zamonda ta'lim jarayonini raqamlashtirish jarayonlari dual ta'limning baholash tizimida ham innovatsion yechimlarni talab qiladi. Raqamli monitoring vositalari yordamida: talabning amaliyot jarayoni bo'yicha ma'lumotlar bazasi yuritiladi; baholash va indikatorlar avtomatik shakllantiriladi; kuzatuv varaqalari va portfel elektron shaklda yuritiladi; amaliyot rahbari va OTM o'qituvchilari o'rtasida tezkor teskari aloqa amalga oshiriladi. Bu esa dual ta'lim jarayonining shaffofligini, natijadorligini va boshqaruv imkoniyatlarini oshiradi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholashning metodologik asoslari kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat yondashuvi, tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, formativ baholash va refleksiv monitoring hamda raqamli ta'lim texnologiyalariga tayangan holda ilmiy jihatdan asoslanadi. Ushbu metodologik asoslar dual ta'limning "OTM–maktab–amaliyot rahbari" integratsiyasiga mos holda baholashni ikki muhitda uyg'un tashkil etish, kompetentlik rivojlanishining dinamikasini aniqlash hamda tajriba-sinov natijalarining ishonchlilikini ta'minlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda baholash va monitoring qilish uchun, avvalo, mezonlar tizimini to'g'ri tanlash masalasi hal qilinishi lozim. Chunki mezonlar tizimi tadqiqotning diagnostik apparatini belgilab, tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchlilik, xolisligi hamda amaliy ahamiyatini ta'minlaydi. Shu sababli mezonlarni tanlash jarayoni tasodifiy yoki umumiy yondashuv asosida emas, balki metodologik jihatdan asoslangan tamoyillar tizimiga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi ko'p komponentli, murakkab tizim bo'lganligi sababli, mezonlar ham ushbu kompetentlikning mohiyati va tarkibiy tuzilmasini kompleks tarzda aks ettirishi lozim.

Dual ta'limning didaktik tabiatidan kelib chiqib, mezonlar tizimi nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida shakllanadigan kompetensiyalarni qamrab olishi, baholash jarayonini "OTM–maktab–amaliyot rahbari" integratsiyasi sharoitida tashkil etish imkonini berishi hamda "4+2" mexanizmi doirasida kompetentlikning bosqich-



ma-bosqich rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qilishi talab etiladi. Demak, mezonlarni tanlash tamoyillari dual ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlikni baholashning metodologik asoslari bilan uzviy bog'liq holda qaraladi.

Mazkur tadqiqot doirasida dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlarini tanlash quyidagi metodologik va didaktik tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. **Komplekslik tamoyili.** Komplekslik tamoyili mezonlar tizimi kasbiy kompetentlikning barcha muhim tarkibiy komponentlarini qamrab olishini taqozo etadi. Chunki kasbiy kompetentlik faqat nazariy bilimlar yig'indisi emas, balki bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya, qadriyat, kommunikativ madaniyat, refleksiya, metodik qaror qabul qilish qobiliyati kabi sifatarning integratsiyalashgan tizimidir. Shuning uchun mezonlar tizimi kompetentlikning faqat bir jihatini emas, balki uning motivatsion, kognitiv, amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlarini ham baholash imkonini berishi lozim. Mazkur tamoyilga tayanish dual ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishini kompleks diagnostika qilishga xizmat qiladi.
2. **Diagnostik aniqlik tamoyili.** Diagnostik aniqlik tamoyili mezonlar aniq, o'lchab bo'ladigan va amaliy jarayonda kuzatish mumkin bo'lgan indikatorlar bilan ifodalanishini talab etadi. Ya'ni mezonlar umumiy, mavhum yoki nazariy tushunchalar darajasida qolib ketmasligi, balki ko'rsatkichlar orqali konkretlashtirilishi zarur. Dual ta'lim sharoitida bu talab ayniqsa muhim, chunki baholash OTMdagi nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda maktab amaliyotidagi real pedagogik faoliyat natijalariga ham tayanadi. Shu sababli mezonlar:
 - amaliyot jarayonida qayd etilishi;
 - kuzatuv varaqalari orqali baholanishi;
 - portfel va refleksiv kundalikda hujjatlashtirilishi;
 - amaliyot rahbari bahosida aks etishi mumkin bo'lgan indikatorlar asosida tanlanadi.
3. **Dual ta'limga moslik (integratsionlik) tamoyili.** Dual ta'limga moslik tamoyili mezonlar tizimi dual ta'limning didaktik mohiyatini aks ettirishi, ya'ni nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida kompetentlik shakllanishini baholashga yo'naltirilgan bo'lishini anglatadi. Dual ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlik OTMdagi o'qitish jarayoni bilan maktabdagi amaliyot faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik orqali rivojlanadi. Shuning uchun mezonlar tizimi ham ikki muhitda: nazariy-metodik tayyorgarlik holatini va amaliy pedagogik ko'nikmalar darajasini birgalikda baholash imkonini berishi lozim. Bu esa mezonlarning integratsiyalashgan va ko'p manbali (OTM o'qituvchisi + amaliyot rahbari + talabning refleksiyasi) baholash mexanizmini ta'minlaydi.
4. **Natijaviylik va kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili.** Zamon talabi sifatida ta'lim jarayonida natijaga yo'naltirilgan yondashuv kuchayib borayotgan sharoitda mezonlar tizimi ham natijaviylik tamoyiliga asoslanishi zarur. Ya'ni mezonlar bo'lajak o'qituvchining kelgusida boshlang'ich sinfda ishlashga tayyorligini, real pedagogik vazifalarni bajara olish qobiliyatini, metodik qaror qabul qilish salohiyatini va kasbiy faoliyat sifatini aks ettirishi kerak. Shuning uchun mezonlar:
 - kasbiy vaziyatlarda yechim topish;
 - darsni rejalashtirish va o'tkazish;
 - sinfni boshqarish;
 - o'quvchilar bilan ishlash;
 - baholash va tarbiyaviy faoliyatni tashkil eta olish kabi kasbiy natijalarni qamrab oladigan tarzda tanlanadi.
 Bu tamoyil dual ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan tabiatiga mos keladi.
5. **Dinamiklik va bosqichlilik tamoyili.** Kasbiy kompetentlik bir maromda yoki bir bosqichda shakllanmaydi. U bosqichma-bosqich rivojlanadi: avval motivatsiya va nazariy tayyorgarlik, keyinchalik metodik ko'nikma, so'ngra mustaqil kasbiy faoliyat qobiliyati shakllanadi. Shu sababli mezonlar tizimi kompetentlikning rivojlanish dinamikasini ko'rsatishi lozim. Bu talab darajali yondashuvni (past-o'rta-yuqori) taqozo etadi. Darajalar orqali: boshlang'ich holat (diagnostik kesim), oraliq rivojlanish (monitoring), yakuniy natija (nazorat) aniqlanadi va kompetentlikning o'sish tendensiyasi ilmiy tahlil qilinadi.
6. **Tizimlilik va izchillik tamoyili.** Mezonlar tizimlilik tamoyiliga ko'ra, o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi va izchil ishlaydigan yagona diagnostik tizim bo'lishi zarur. Mezonlar tasodifiy tanlanmasdan, kompetentlik tarkibining mantiqiy tuzilmasiga mos bo'lishi, o'zaro integratsiyalashgan holda ishlashi lozim. Masalan, motivatsion mezon kognitiv tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlashi, kognitiv mezon amaliy faoliyatga asos



bo'lishi, refleksiv mezon esa o'sish dinamikasini boshqaruvchi ichki mexanizm bo'lib xizmat qilishi kerak. Bu mezonlarni tizimli qo'llash orqali dual ta'lim jarayonining didaktik samarasi ilmiy asosda aniqlanadi.

7. **Shakllar va vositalar bilan uyg'unlik tamoyili.** Baholash mezonlari dual ta'lim sharoitida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarga mos bo'lishi talab etiladi. Chunki mezonlar real o'quv jarayonidan ajralgan holda emas, aynan integratsiyalashgan mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, amaliyotga rahbarlik faoliyati hamda refleksiv tahlil jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli mezonlar baholash vositalari (kuzatuv varaqa, portfel, refleksiv kundalik, baholash jadvali, rubrika) bilan bog'langan holda tanlanadi. Bu tamoyil baholashning amaliy samarasini oshirib, uni "o'qitish jarayonining ajralmas qismi"ga aylantiradi.
8. **Shaffoflik va ishonchlilik tamoyili.** Zamonaviy ta'limda baholash tizimi shaffof, tushunarli va xolis bo'lishi talab etiladi. Dual ta'lim sharoitida baholash jarayonida subyektivlik ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin, chunki amaliyot jarayonida amaliyot rahbari yoki metodistlarning xulosalari muhim rol o'ynaydi. Shu bois mezonlar tizimi: aniq indikatorlarga tayangan; darajalar bo'yicha konkret tavsiflangan; ko'p manbali baholashga asoslangan bo'lishi lozim. Bu yondashuv baholash natijalarining ishonchligini ta'minlaydi va tajriba-sinov natijalariga matematik-statistik ishlov berish uchun metodik asos yaratadi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlarini tanlash tamoyillari komplekslik, diagnostik aniqlik, dual ta'limga moslik, natijaviylik, dinamiklik, tizimlilik, vositalar bilan uyg'unlik hamda shaffoflik va ishonchlilik talablariga asoslanadi. Mazkur tamoyillar mezonlar tizimini ilmiy jihatdan asoslash, kompetentlik rivojlanishini real holatda aniqlash, ta'lim jarayonini boshqarish va natijaviyligini oshirish imkonini beradi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini baholashda mezonlar tizimi muhim metodologik va didaktik asos vazifasini bajaradi. Chunki kasbiy kompetentlilik faqat bilimlar majmui bilan izohlanmaydi, balki bo'lajak o'qituvchining kasbiy motivatsiyasi, pedagogik tafakkuri, metodik faoliyati, muloqot madaniyati hamda refleksiv o'sish qobiliyatining kompleks rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Dual ta'limda esa ushbu kompetentlilik OTMdagi nazariy tayyorgarlik va maktabdagi real pedagogik amaliyotning integratsiyalashgan holda tashkil etilishi orqali shakllanadi. Shu sababli baholash jarayonida kompetentlilikning barcha muhim komponentlarini qamrab oluvchi, diagnostik aniqlikka ega bo'lgan, amaliyotda kuzatiladigan va o'lchanadigan mezonlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Mazkur tadqiqotda dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari 5 ta asosiy mezon asosida belgilandi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ, refleksiv. Ushbu mezonlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, kompetentlilikning ichki va tashqi komponentlarini kompleks baholash imkonini beradi hamda "OTM-maktab-amaliyot rahbari" integratsiyasi sharoitida simmetrik baholash mexanizmini shakllantiradi.

Motivatsion-qadriyatli mezon. Motivatsion-qadriyatli mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatga munosabati, o'qituvchilik kasbiga nisbatan ichki ehtiyoji, pedagogik qadriyatlarni qabul qilishi, kasbiy mas'uliyat va ijtimoiy vazifalarni anglash darajasini ifodalaydi. Mazkur mezon dual ta'lim sharoitida alohida ahamiyatga ega, chunki talaba amaliyot muhitiga kirishi bilan real pedagogik vaziyatlarga duch keladi va aynan shunday sharoitda uning kasbiy motivatsiyasi, kasbga sadoqati hamda pedagogik mas'uliyat hissi namoyon bo'ladi.

Motivatsion-qadriyatli mezon mazmunan quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

- o'qituvchilik kasbiga qiziqish va ijobiy munosabat;
- pedagogik faoliyatga ongli ravishda yo'naltirilganlik;
- boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga qadriyat sifatida yondashish;
- dual ta'limning nazariya-amaliyot uyg'unligi asosida ishlashga tayyorlik;
- o'z kasbiy rivojlanishi uchun ichki ehtiyoj va intilish.

Demak, ushbu mezon bo'lajak o'qituvchining kompetentlilikni rivojlantirish jarayonida yetakchi ichki omil bo'lib xizmat qiladi.

Kognitiv mezon. Kognitiv mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligida zarur bo'lgan ilmiy-nazariy, pedagogik-didaktik hamda metodik bilimlar tizimini o'zlashtirish darajasini ifodalaydi. Zamon talabi sifatida bugungi pedagogik ta'limda o'qituvchi nafaqat fan mazmunini biluvchi, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi, kompetensiyaga yo'naltirilgan metodik qaror qabul qiluvchi mutaxassis sifatida shakllanishi lozim. Dual ta'lim sharoitida esa kognitiv tayyorgarlik amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lanib, bilimlarning real ta'lim jarayonida qo'llanishini ta'minlaydi.



Kognitiv mezon quyidagi mazmuniy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- pedagogika nazariyasi va didaktikaning asosiy kategoriyalari;
- boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi;
- darsni loyihalash va didaktik rejalashtirish;
- kompetensiyaviy yondashuv, baholash va monitoring tizimi;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha nazariy asoslar;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar.

Demak, kognitiv mezon bo'lajak o'qituvchining metodik savodxonligi va kasbiy tafakkurini belgilovchi asosiy ilmiy komponent hisoblanadi.

Faoliyat-amaliy mezon. Faoliyat-amaliy mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini real pedagogik faoliyat jarayonida namoyon etish darajasini ifodalaydi. Dual ta'limning eng muhim didaktik ustunligi ham aynan shu mezonda ko'zga tashlanadi: talaba OTMda olgan bilimlarini maktabdagi real sinf muhitida amalda sinab ko'radi, metodik harakatlarni bajaradi va kasbiy tajribani shakllantiradi. Shu sababli faoliyat-amaliy mezon dual ta'lim sharoitida kompetentlikning eng muhim "natijaviy mezon" sifatida baholanadi.

Faoliyat-amaliy mezon quyidagi amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi:

- darsni rejalashtirish va o'tkazish (maqsad, mazmun, metod, vosita);
- sinf jamoasini boshqarish va o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- interfaol metodlardan foydalanish (muammoli ta'lim, keys, loyiha);
- o'quvchilar bilimini baholash va diagnostika qilish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- individual yondashuv va differensial topshiriqlarni qo'llash;
- STEAM va integratsiyalashgan fanlar yondashuvini darsga tatbiq etish.

Mazkur mezon bo'lajak o'qituvchining nazariy tayyorgarligi real amaliy natijaga aylanganligini ko'rsatib beradi.

Kommunikativ mezon. Kommunikativ mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik muloqot madaniyati, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyati, o'quvchi, ota-ona, amaliyot rahbari hamda hamkasblar bilan samarali hamkorlik o'rnatish kompetensiyasini ifodalaydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatish, motivatsiyani shakllantirish va tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda muloqot muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dual ta'lim sharoitida esa kommunikativ kompetensiya "OTM-maktab-amaliyot rahbari" uchligi doirasida hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish uchun ham zarur.

Kommunikativ mezon quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- pedagogik muloqot texnologiyalarini bilish va qo'llash;
- o'quvchi bilan individual suhbatlar olib borish;
- guruh ishlarida hamkorlik muhitini yaratish;
- ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik;
- konfliktlarning oldini olish va konstruktiv yechim topish;
- amaliyot rahbari tavsiyalarini qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish.

Demak, kommunikativ mezon bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy pedagogik omillardan biridir.

Refleksiv mezon. Refleksiv mezon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, metodik xatolarni aniqlash, kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash hamda o'z ustida ishlash kompetensiyasini ifodalaydi. Zamon talabiga ko'ra, pedagogik ta'limda refleksiya o'qituvchining professional o'sishi va uzluksiz rivojlanishining ichki mexanizmi sifatida qaraladi. Dual ta'lim sharoitida esa refleksiya nazariy tayyorgarlik va amaliyot tajribasini integratsiyalash, "tajriba-tahlil-xulosa-takomillashtirish" siklini tashkil etishda muhim didaktik resurs hisoblanadi.

Refleksiv mezon quyidagilarni o'z ichiga oladi: darsdan keyingi tahlil va xulosalar chiqarish; refleksiv kundalik yuritish; portfel asosida o'z kasbiy o'sishini monitoring qilish; amaliyot rahbari fikr-mulohazalarini tahlil



qilish asosida metodik xulosalar chiqarish; muammolarni aniqlash va takomillashtirish strategiyasini belgilash. Shu tariqa refleksiv mezon bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik komponent hisoblanadi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ hamda refleksiv mezonlar asosida belgilandi. Mazkur mezonlar bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini kompleks baholash imkonini yaratadi, dual ta'limning nazariya–amaliyot integratsiyasi mohiyatini aks ettiradi va “OTM–maktab–amaliyot rahbari” hamkorligi sharoitida monitoringni ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash jarayonida mezonlar tizimini amaliy jihatdan aniq belgilash uchun ularni ko'rsatkichlar (indikatorlar) orqali konkretlashtirish zarur. Chunki mezon kompetentlikning umumiy yo'nalishini belgilasa, indikatorlar ushbu mezonning real pedagogik faoliyatdagi namoyon bo'lish shakllarini ifodalaydi. Dual ta'lim jarayonining o'ziga xosligi shundaki, indikatorlar talabani nazariy tayyorgarligi (OTM) hamda amaliy faoliyati (maktab) natijalari asosida, shuningdek, amaliyotga rahbarlik bahosi va refleksiv tahlillar orqali kompleks aniqlanadi. Shu sababli quyida har bir mezon bo'yicha indikatorlar tizimi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar (indikatorlar)	Dual ta'lim muhitida aniqlash manbasi
Motivatsion-qadriyatli	Kasbga qiziqish; kasbiy mas'uliyat; pedagogik qadriyatlarni qabul qilish; amaliyotga faol munosabat; o'z ustida ishlashga intilish	OTM kuzatuv; amaliyotdagi faollik; suhbat/anketa; amaliyot rahbari xulosasi
Kognitiv	Pedagogika-didaktika bilimlari; boshlang'ich ta'lim metodikasi; darsni loyihalash; baholash tizimini bilish; zamonaviy yondashuvlarni tushunish	Test va nazorat ishlari; loyiha-topshiriqlar; metodik reja tahlili
Faoliyat-amaliy	Dars o'tish; sinfni boshqarish; metod tanlash; baholash; tarbiyaviy faoliyat; pedagogik vaziyatni hal qilish	Kuzatuv varaqasi; dars tahlili; amaliyot rahbari bahosi; portfel
Kommunikativ	Pedagogik muloqot; hamkorlik; ota-ona bilan ishlash; guruhiy ish; konfliktni boshqarish	Amaliyotdagi kuzatuv; intervyu; amaliyot rahbari/metodist bahosi
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish; xatoni anglash; takomillashtirish; refleksiv kundalik; o'z-o'zini baholash	Refleksiv kundalik; portfel; amaliyot rahbari fikr-mulohazasi; monitoring natijalari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun baholashning mezonli va indikatorli tizimini ishlab chiqish muhim didaktik ahamiyatga ega. Mazkur tizim kasbiy kompetentlikni ilmiy asosda aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta'lim jarayonining natijadorligini baholash imkonini beradi. Dual ta'limning nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslangan didaktik mohiyati baholash jarayonini ham integratsiyalashgan holda tashkil etishni taqozo etadi. Shu sababli kompetentlikni baholashda OTMdagi nazariy tayyorgarlik natijalari bilan maktabdagi amaliy faoliyat ko'rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish zarur.

Tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash uchun motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv mezonlardan iborat kompleks tizim ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar asosida indikatorlar aniqlanib, kompetentlikni past, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha baholash imkoniyati yaratildi. Taklif etilgan mezon va indikatorlar dual ta'lim sharoitida kompetentlikni kompleks diagnostika qilish, monitoring jarayonini tizimli tashkil etish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari dual ta'lim sharoitida baholash jarayonini tashkil etishda ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, baholash mezonlarining yagona tizimga ega emasligi, amaliyot rahbarlari tomonidan baholashda subyektivlikning yuzaga kelishi, monitoring jarayonining yetarli darajada tizimli yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar aniqlangan.

Mazkur muammolarni bartaraf etish hamda dual ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash uchun yagona mezon va indikatorlar tizimini joriy etish;



- baholash jarayonida “OTM–maktab–amaliyot rahbari” hamkorligiga asoslangan ko'p manbali baholash mexanizmini qo'llash;
- pedagogik amaliyot jarayonida kuzatuv varaqalari, reflektiv kundalik, portfel va baholash rubrikalari kabi diagnostik vositalardan tizimli foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini kuzatish uchun monitoring tizimini raqamli ta'lim platformalari asosida tashkil etish;
- amaliyot rahbarlari va metodistlar uchun kompetensiyaviy baholash metodikasi bo'yicha maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Taklif etilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali boshqarish, baholash tizimini takomillashtirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>
2. Adolf, V.A. Stanovlenie professionalnoy kompetentnosti pedagoga / V.A. Adolf // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal. – 2013. – № 5. – S. 38-41.
3. Baydenko, V.I. Bolonskiy protsess: rezultati obucheniya i kompetentnostniy podxod / V.I. Baydenko. – M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2009. – 536 s.
4. Danilenko, L.I. Pedagogicheskie innovatsii i innovatsionnye pedagogicheskie tekhnologii: suchnost i struktura / L.I. Danilenko // Novie tekhnologii obucheniya: nauchno-metodicheskiy sbornik. – M.: Akademiya, 2006. Vipusk 40. – S. 67-78.
5. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013, 128 bet. 9-b.
6. Slastenin, V.A. Pedagogika: ucheb. posobie dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isaev, Ye.N. Shiyanov. – M.: “Akademiya”, 2002. – 576 s.
7. Zimnyaya, I.A. Kompetentsiya i kompetentnost v kontekste kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii / I.A. Zimnyaya // Uchenie zapiski natsionalnogo obchestva prikladnoy lingvistiki. – 2013. –№ 4. – S. 16-31.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.